

## SAYYID AHMAD XONNING MA'RIFIY QARASHLARI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Azamatova Sevinch Valijon qizi*

*Ilmiy rahbar: Sulaymonov Jasur Baxtiyarovich*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi dotsenti, PhD*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XIX asr Hindistonidagi mashhur islohotchi va ma'rifatparvar alloma Sayyid Ahmad Xonning ma'rifiy qarashlari tahlil qilinadi. Muallif Sayyid Ahmad Xonning musulmon jamiyatini ilm-fan, tafakkur va zamonaviy ta'lim orqali yangilashga qaratilgan harakatlarini yoritadi. Jumladan, uning Aligarh modeli asosida tashkil etilgan Muhammadan Anglo-Sharq Kolleji faoliyati, "Tahzib al-Axloq" jurnalining nashri orqali ilgari surilgan g'oyalari, diniy ilmlar va zamonaviy fanlarni uyg'unlashtirishga bo'lgan intilishi, hamda ayollar ta'limini yo'lga qo'yish borasidagi sa'y-harakatlari tahlil etiladi. Maqolada Sayyid Ahmad Xonning ilg'or fikrlari o'z zamonasining ijtimoiy-madaniy kontekstida baholanib, uning bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotgan g'oyalari ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** ma'rifatparvar, millatchilik g'oyalari, "Tahzib ul-axloq", "Ikki millat nazariyasi", modernizatsiya.

**Abstract:** This article analyzes the educational views of Sayyid Ahmad Khan, a famous 19th-century Indian reformer and enlightener. The author highlights Sayyid Ahmad Khan's efforts to renew Muslim society through science, thought, and modern education. In particular, his activities at the Muhammadan Anglo-Eastern College, organized on the basis of the Aligarh model, his ideas put forward through the publication of the journal "Tahzib al-Akhlaq," his desire to combine religious and modern sciences, as well as his efforts to establish women's education are analyzed. In the article, Sayyid Ahmad Khan's progressive ideas are evaluated in the socio-cultural context of his time, and his ideas, which remain relevant today, are examined from a scientific point of view.

**Keywords:** enlightenment, nationalist ideas, "Tahzib ul-Akhlaq," "Theory of Two Nations," modernization.

**Аннотация:** В данной статье анализируются просветительские взгляды Саййида Ахмада Хана, известного реформатора и просветителя Индии XIX века. Автор освещает усилия Саййида Ахмада Хана по обновлению мусульманского общества посредством науки, мышления и современного образования. В частности, анализируется деятельность Англо-Восточного колледжа

Мухаммада, созданного по модели Алигарха, идеи, выдвинутые через публикацию журнала "Тахзиб аль-Ахлак," его стремление к гармонизации религиозных и современных наук, а также его усилия по налаживанию женского образования. В статье прогрессивные идеи Саййида Ахмада Хана оцениваются в социокультурном контексте его времени, и его идеи, которые остаются актуальными и сегодня, рассматриваются с научной точки зрения.

**Ключевые слова:** просветитель, националистические идеи, "Тахзиб уль-ахлак," "Теория двух наций," модернизация.

### KIRISH

Sayyid Ahmad Xon hind musulmon islohotchisi, faylasuf va ma'rifatparvari. U 1817-1898-yillarda yashab o'z faoliyatini olib borgan. Dastlab hind-musulmon birligini yoqlagan bo'lsa-da, keyinchalik u Hindistonda musulmon millatchiligining kashshofiga aylangan va Pokiston harakatining asosini tashkil etgan ikki millat nazariyasining otasi sifatida keng e'tirof etilgan. Boburiylar saroyi bilan mustahkam aloqaga ega oilada tug'ilgan Ahmad saroyda ilm-fan va Qur'oni o'rgangan.

Sayyid Ahmad Xon 1817-yil Dehlida tug'ilgan. Uning oilasi Boburiylar imperiyasi davrida yuqori lavozimlarga ega bo'lgan<sup>1</sup>. U yoshlik chog'ida klassik islam ilmlarini o'rgangan va keyinchalik Britaniya ta'lim tizimi bilan tanishgan. Uning asosiy qarashlari musulmonlarning Britaniya mustamlakasidagi o'rniga bog'liq bo'lgan. 1857-yilgi Hindiston qo'zg'olonidan keyin musulmonlarning ahvoli keskin yomonlashgach Sayyid Ahmad Xon musulmonlar bilan britanlar o'rtasidagi ishonchni tiklashga harakat qilgan. Ma'rifatparvar dastlabki islohotlarni ta'lim tizimi orqali boshlagan. U 1859-yilda Moradobod shahrida faoliyatidagi dastlabki maktablardan birini ochgan. 1875-yilda u Muhammadan Anglo-Sharq Kollejini tashkil qilgan. Keyinchalik bu kollej Aligarh Muslim Universitetiga aylangan. Sayyid Ahmad Xon turli ilmiy va diniy masalalarda kitoblar yozgan. Islohotchining o'z qarashlari "Tahzib al-Axloq" jurnalida bayon qilgan. U Hindiston musulmonlarini zamonaviy fanlarni o'rganishga undagan. Olimning qarashlari hind musulmonlari orasida yangi intellektual harakatni boshlab bergan. Sayyid Ahmad Xon Qur'on tafsiri yozish bilan ham shug'ullangan. U Hindistonda modernizatsiyani tezlashtirish uchun ta'limga katta e'tibor bergan. Sayyid Ahmad Xonning ta'limiy yondashuvi keyinchalik Pokiston ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Sayyid Ahmad Xon Hindiston musulmonlarining ta'lim sohasida orqada qolganligini ko'rib, bu muammoni hal qilishga intilgan. U ta'limni modernizatsiya qilish orqali musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga erishmoqchi bo'lgan. Ma'rifatparvar o'z islohotlarida din va ilm-fanni uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surgan. Uning ta'limiy qarashlari an'anaviy madrasa tizimini tanqid qilish bilan bog'liq bo'lib, u Britaniya mustamlakasida

---

<sup>1</sup> Lelyveld, D. (1996). Aligarh's First Generation: Muslim Solidarity in British India. Oxford University Press. (s. 12)

musulmonlar imkoniyatlarini kengaytirishga intilgan. Islohotlarida musulmonlarni zamonaviy ilm-fan bilan tanishtirish muhim o‘rin tutgan bo‘lib, bu yo‘lda vosita sifatida Hindistondagi musulmonlarning ingliz tilini o‘rganishlari muhim ekanligini ta’kidlagan. Sayyid Ahmad Xon musulmonlarni zamonaviy fanlar orqali ilg‘or millatlar qatoriga olib chiqish mumkin deb hisoblagan. Uning fikricha, yevropacha ta’limni o‘rganish Islom tamoyillariga zid emas. Shu sababdan u o‘zining islohotchilik faoliyatida zamonaviy tafakkurni rivojlantirishga harakat qilgan.

### ASOSIY QISM

Sayyid Ahmad Xon musulmonlar orasida ilmiy tafakkurni yoyish uchun jurnalistikani ham rivojlantirgan. U madrasalar va maktablarda tabiiy fanlar o‘qitilishini yoqlagan. Sababi, o‘z davrida maorif o‘chog‘i bo‘lgan madarasalar faqatgina diniy ta’lim bilan cheklanib qolgan edi. Sayyid Ahmad Xon ilmiy taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanish o‘zaro bog‘liq deb hisoblagan. Marifatparvar Islohotlar orqali musulmonlarni davlat idoralarida ishlashga tayyorlashni maqsad qilgan. Uning fikricha, madaniy an’analarga rioya qilish bilan birga zamonaviylashish ham muhim. Sayyid Ahmad Xonning ta’lim islohotlari Hindistondagi Aligarh harakatining negizini tashkil qilgan. Uning qarashlari mustamlaka davridagi musulmonlarning ta’lim tizimiga ta’sir qilgan.

Sayyid Ahmad Xon zamonaviy bilimlarning diniy bilimlar bilan integratsiyasini muhim deb hisoblagan. U Hindiston musulmonlari o‘z madaniyatini saqlab, zamonaviylashishi lozimligini aytgan.

XIX asrda Hindistonda musulmonlarning ta’lim darajasi juda past edi. Madrasalar asosan diniy ta’lim berishga qaratilgan bo‘lib, dunyoviy fanlar deyarli o‘qitilmas edi. Yodlashga asoslangan ta’lim tizimi tanqidiy fikrlashni rivojlantirmas edi. Hindiston musulmonlari mustamlaka ma’muriyatida ishlash imkoniyatidan mahrum bo‘lib borayotgan edi. Britaniya mustamlakasi ostida musulmonlar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan zaiflashdi va oqibatda Musulmonlar va hindular orasida ta’lim darajasida katta tafovut paydo bo‘ldi. Madrasalarda faqat diniy fanlarga urg‘u berilgan bo‘lib, zamonaviy fanlar chetlab o‘tilganligi sababli, musulmonlar orasida savodxonlik darajasi hindular va britanlardan ancha orqada edi. Britaniyaliklar tomonidan ochilgan maktablarga musulmonlar ishonchsizlik bilan qarardi. Ba’zi musulmon ulamolari ingliz tilida ta’lim olishni “g‘arbiy madaniyatni qabul qilish” deb tushungan.

1857-yildagi qo‘zg‘olondan keyin musulmonlar ta’lim va siyosiy jarayonlardan chetlatildi. Mustamlakachilar universitetlar va ilmiy markazlar yaratdi, lekin ushbu markazlardagi musulmonlarning soni juda ozchilikni tashkil etardi. An’anaviy diniy ta’lim musulmon jamiyatida yetakchilik qila oladigan zamonaviy mutaxassislarni yetishtira olmadi. Matematika, tabiiy fanlar, tibbiyot va muhandislik bo‘yicha ta’lim tizimi musulmonlar orasida juda zaif edi. Sayyid Ahmad Xon aynan mana shu muammolarni hal qilish uchun islohot boshladi.

Sayyid Ahmad Xon madrasalardagi ta’lim tizimini eskirgan deb hisoblab, musulmonlarning faqat yodlash va diniy bilim bilan chegaralanib qolishini tanqid qildi. Uning fikricha, fan va texnologiyadan voz kechish musulmon jamiyatining orqada qolishiga sabab bo‘lgan. U G‘arb ilm-fani va texnologiyasini o‘rganish shariatga zid emasligini isbotlashga harakat qildi. Olimning ta’kidlashicha, Qur’on tafsiri va islom ilmlari zamонавиј fanlar bilan bog‘lanishi kerak edi<sup>2</sup>. Musulmonlar mustamlakachi hukumat bilan ilmiy hamkorlik qilishlari va ingliz tilini o‘rganib, davlat idoralarida ishlashlari orqali musulmonlarning bir qadar rivojlanishiga erishishi mumkin edi. U G‘arb ilm-fani va falsafasidan foydalanish orqali musulmon madaniyatini mustahkamlash mumkinligini ta’kidlagan. Sayyid Ahmad Xon “faqat diniy ta’lim bilan cheklanib qolish musulmonlar uchun xavfli” deb hisoblagan. U madrasalar va eski ta’lim tizimini faqat shariatga asoslanganligi uchun emas, balki eskirganligi uchun tanqid qilgan. Sayyid Ahmad Xon ta’lim tizimida G‘arb va Sharqning ilg‘or jihatlarini uyg‘unlashtirishga harakat qildi. U an’anaviy madrasa ta’limining faqat diniy bilimlar bilan chekhanishini tanqid qilib, musulmonlar uchun zamонавиј fan va texnologiyalarga asoslangan ta’lim tizimi zarurligini ilgari surdi. Uning fikricha, ilm-fan va din bir-biriga zid tushunchalar emas, aksincha, biri ikkinchisini to‘ldirishi kerak. U Qur’oni aql va mantiq orqali tushunish tarafdoi bo‘lib, diniy ta’lim bilan bir qatorda tabiiy fanlar va zamонавиј fanlarni ham o‘qitish muhimligini ta’kidladi.

Bu g‘oyalarni keng targ‘ib qilish maqsadida Sayyid Ahmad Xon “Tahzib al-Axloq” jurnalini nashr eta boshladi<sup>3</sup>. Ushbu jurnal orqali u musulmonlarni ilmiy tafakkurga chorlab, ularning aqliy ozodligini rivojlantirishga harakat qildi. Uning ta’kidlashicha, mustamlakachilik sharoitida musulmonlar o‘z ta’lim tizimini isloh qilmasa, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ortda qolishda davom etaveradi. Shu sababli u ta’limni faqat diniy bilimlar bilan cheklab qo‘yish noto‘g‘ri ekanligini, aksincha, musulmon yoshlarini matematika, tabiiy fanlar, falsafa va texnologiya bilan tanishtirish lozimligini ilgari surdi.

Bu qarashlarini amalda joriy qilish uchun Sayyid Ahmad Xon 1875-yilda Muhammadan Anglo-Sharq Kollejini (MAO) tashkil etdi. Keyinchalik bu muassasa Aligarh Muslim Universitetiga (AMU) aylangan bo‘lib, Hindistondagi eng nufuzli ta’lim maskanlaridan biriga aylandi. MAO kolleji o‘quv dasturiga ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, huquq va falsafa kabi fanlar kiritildi. U an’anaviy madrasa tizimidan farqli o‘laroq, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va amaliy bilimlarni berishga e’tibor qaratdi. Sayyid Ahmad Xon kolleji orqali musulmon yoshlarga zamонавиј dunyoda raqobatbardosh bo‘lish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni berishga harakat qildi.

Ushbu ta’lim modelining asosiy maqsadi musulmon jamiyatidan ilg‘or fikrlovchi yetakchilarni yetishtirish edi. Sayyid Ahmad Xon musulmonlar faqat diniy

<sup>2</sup> Ahmad, S. (2006). Sir Sayyid Ahmad Khan and the Muslim Cause in British India. Islamic Book Foundation. (s. 78)

<sup>3</sup> Minault, G. (1982). The Khilafat Movement: Religious Symbolism and Political Mobilization in India. Columbia University Press. (s. 45)

ilmlar bilan cheklanib qolmasligi, balki zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni o‘rganib, jamiyatning har bir sohasida faol rol o‘ynashi kerakligini ta’kidladi. Shu sababdan u MAO kollejida diniy fanlarni zamonaviy fanlar bilan parallel ravishda o‘qitish tizimini joriy etdi. Bu orqali u Sharqning axloqiy qadriyatlarini G‘arbning ilmiy yutuqlari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qildi.

Sayyid Ahmad Xonning ta’lim modeli nafaqat Hindiston musulmonlari, balki butun Islom olami uchun ham yangi yo‘nalish ochib berdi. Uning islohotlari musulmonlarning jamiyatda faol ishtirok etishi va zamonaviy dunyo bilan uyg‘unlashuvi uchun muhim asos bo‘ldi. Bugungi kunda ham Aligarh modeli ko‘plab musulmon mamlakatlarida ta’lim tizimining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sayyid Ahmad Xon ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida nafaqat o‘quv dasturlarini yangiladi, balki o‘qitish uslublarini ham o‘zgartirishga harakat qildi. U an‘anaviy madrasa ta’limining asosiy kamchiliklaridan biri sifatida yodlashga asoslangan usulni tanqid qildi. Uning fikricha, ta’lim jarayoni shunchaki axborotni yodlash emas, balki o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak edi. Shuning uchun u talabalarga savol berish, muhokama qilish va mustaqil fikrlashni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratdi.

Sayyid Ahmad Xon fikricha, tanqidiy tafakkur va ilmiy metodologiya har qanday ta’lim tizimining asosiy tamoyillari bo‘lishi lozim. U talabalarni nafaqat tayyor bilimlarni o‘rganishga, balki o‘z mustaqil xulosalarini chiqarishga undadi. U o‘qituvchilarini o‘quvchilar bilan ochiq muloqot qilishga va ularga mantiqiy tafakkur orqali savollarga javob berishni o‘rgatishga chaqirdi. Bu uslub o‘sha davr uchun yangilik bo‘lib, an‘anaviy ta’lim tizimididan keskin farq qildi.

Shuningdek, Sayyid Ahmad Xon ta’lim jarayonida amaliy bilimlarga alohida e’tibor qaratdi. U nazariy bilimlarning amaliy tajriba bilan mustahkamlanishi kerakligini ta’kidlab, laboratoriya ishlari va eksperimental tadqiqotlarni joriy etishga harakat qildi. Bu uslub ayniqsa tabiiy fanlar, matematika va texnologiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etdi. Uning Aligarh modeli asosida tashkil etilgan Muhammadan Anglo-Sharq Kollejida amaliy mashg‘ulotlar ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylandi<sup>4</sup>. Bu orqali Sayyid Ahmad Xon nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay oladigan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan mutaxassislar tayyorlashni maqsad qilgan edi.

Ta’lim tizimidagi eng katta muammolardan biri ayollar ta’limiga bo‘lgan yondashuv edi. O‘sha davrda musulmon jamiyatida ayollarning ilm olishiga nisbatan ko‘plab cheklovlar mavjud edi. Biroq Sayyid Ahmad Xon ayollar ham ilmli bo‘lishi, ta’lim olish huquqiga ega ekanini ta’kidlab, bu borada muhim qadamlar tashladi. U qizlar uchun alohida maktablar tashkil etishga urindi va jamiyatdagi konservativ

---

<sup>4</sup> Lelyveld, D. (1978). Aligarh's First Generation: Muslim Solidarity in British India. Oxford University Press. (s. 103)

qarashlarga qarshi turishga harakat qildi<sup>5</sup>. Biroq uning bu sa'y-harakatlari an'anaviy ulamolar va ijtimoiy doiralar tomonidan kuchli qarshilikka uchradi. Shunga qaramay, Sayyid Ahmad Xonning g'oyalari keyinchalik ayollar ta'limi rivojiga zamin yaratdi va Hindiston musulmon jamiyatida bu borada ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

Umuman olganda, Sayyid Ahmad Xon ilgari surgan pedagogik uslublar o'sha davr musulmon ta'lim tizimi uchun inqilobiy yangilik bo'ldi. U an'anaviy yodlash tizimidan voz kechib, tanqidiy tafakkur va amaliy bilimga asoslangan ta'lim modelini targ'ib qildi. Uning fikricha, bu usullar musulmon jamiyatini rivojlantirish va ularni zamonaviy dunyoga moslashtirish uchun asosiy kalit bo'lib xizmat qilishi lozim edi. Bugungi kunda ham uning ilgari surgan ta'lim uslublari dolzarb bo'lib, ko'plab ta'lim tizimlari aynan shu tamoyillar asosida shakllanmoqda.

Sayyid Ahmad Xon ta'lim islohotlarini amalga oshirar ekan, til masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Uning fikricha, til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki milliy o'zlik va madaniyatni saqlab qolishning muhim omili hamdir. Shuning uchun u o'z ta'lim modelida Urdu tilining o'rnnini mustahkamlashga harakat qildi. U Urdu tilini Hindiston musulmonlarning madaniy va ilmiy taraqqiyotida asosiy vosita deb bilgan. Ammo shu bilan birga, musulmon yoshlarining global dunyo bilan hamohang rivojlanishi uchun ingliz tilini ham o'rganish zarurligini ta'kidlagan.

O'sha davrda Hindistonda ingliz mustamlakachiligi hukm surar, ingliz tili esa davlat idoralari, ilm-fan va iqtisodiy sohalarda asosiy aloqa tili edi. Sayyid Ahmad Xon musulmonlarning bu sohadan chetda qolmasligi uchun ularni ingliz tilini o'rganishga da'vat etdi. U ingliz tilini nafaqat amaliy hayotda foydali til, balki ilm-fan va texnologiyani o'rganish uchun kalit deb bildi. Shu sababli u Muhammadan Anglo-Sharq Kollejida ingliz tilini asosiy fanlardan biri sifatida joriy etdi. Uning bu qarori ayrim an'anaparast ulamolar tomonidan tanqid qilindi, chunki ular ingliz tilining ta'lim tizimiga kiritilishini G'arb ta'sirini kuchaytirish deb hisoblagan. Biroq Sayyid Ahmad Xon bunday fikrlarga qarshi chiqib, ingliz tilini o'rganish musulmonlarning intellektual rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim ekanini isbotlashga harakat qildi.

Biroq u musulmon yoshlar o'z madaniy ildizlaridan ajralib qolmasligi uchun Urdu tilini ham saqlab qolish tarafdoi edi. Uning fikricha, Urdu tili musulmonlar tarixiy va madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, bu tilda adabiyot, tarix, falsafa va diniy ilmlar rivojlangan edi. Shu sababli u musulmonlarning ta'lim olishi uchun eng maqbul til Urdu tili bo'lishi lozim deb hisobladi. Sayyid Ahmad Xon Urdu tilining rasmiy maqomini mustahkamlash uchun ko'plab ilmiy va adabiy asarlar yozdi. U Urdu tilidagi ilmiy adabiyotlarni boyitish va shu tilda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qildi.

---

<sup>5</sup> Minault, G. (1998). Secluded Scholars: Women's Education and Muslim Social Reform in Colonial India. Oxford University Press. (s. 59)

Sayyid Ahmad Xonning islohotlari natijasida Hindiston musulmonlari orasida ilmiy tafakkur rivojlandi va ular ilg‘or jamiyatlar bilan hamohang harakatlana boshladilar. Uning ta’lim modeli orqali musulmon yoshlari ingliz tilini mukammal o‘rganib, zamonaviy fan va texnologiyalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa Hindiston musulmonlarining davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ilm-fan sohalarida faol ishtirok etishiga olib keldi.

### **XULOSA**

Sayyid Ahmad Xonning g‘oyalari va islohotlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U asos solgan Aligarh Muslim Universiteti (AMU) Hindistonning yetakchi ilmiy markazlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu universitetdan minglab yetuk mutaxassislar yetishib chiqdi va ular Hindistonning siyosiy, iqtisodiy va ilmiy sohalarida muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Pokistonda esa Sayyid Ahmad Xonning ta’limga bo‘lgan qarashlari katta ta’sir ko‘rsatgan. Pokistonning ta’lim tizimi ko‘p jihatdan Aligarh modeliga asoslangan bo‘lib, u yerda ham ilm-fan va diniy ta’lim uyg‘unligi saqlangan. Pokistonda tashkil etilgan Karachi Universiteti, Lahor Universiteti va boshqa oliy o‘quv yurtlari Sayyid Ahmad Xonning ta’lim modelidan ilhomlangan holda tashkil etilgan. Bundan tashqari, Hindiston va Pokistonda ingliz tilining ta’lim tizimidagi o‘rni bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Sayyid Ahmad Xon o‘z vaqtida ingliz tilini o‘rganish musulmonlar uchun zarur ekanligini ta’kidlagan edi. Bugungi kunda ham Hindiston va Pokistonning yirik universitetlarida ingliz tili asosiy ta’lim tili sifatida qo‘llaniladi.

Bugungi kunda Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Janubi-Sharqiyy Osiyo mamlakatlari ham ta’lim tizimlarini isloh qilishda shu tamoyillardan foydalanmoqda. Masalan, Malayziya va Turkiya ta’lim tizimlari Sayyid Ahmad Xonning qarashlariga mos tarzda diniy va dunyoviy fanlarni uyg‘unlashtirish tamoyiliga asoslangan.

Shuningdek, Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa G‘arb mamlakatlarda istiqomat qilayotgan musulmon jamoalari ham Sayyid Ahmad Xonning merosidan ilhomlanib, Islomiy ta’lim va zamonaviy ilmlarni uyg‘unlashtirgan maktablar ochmoqda. Masalan, London va Nyu-Yorkdagi musulmon ta’lim muassasalari aynan shu g‘oyaga asoslanadi.

Sayyid Ahmad Xon o‘z zamonida musulmon jamiyatining kelajagini oldindan ko‘ra olgan va ular uchun zamonaviy dunyoda raqobatbardosh bo‘lishning yo‘lini ko‘rsatgan. Bugungi kunda uning merosi turli mamlakatlarda hamon saqlanib qolgan va rivojlanishda davom etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nizami, K. A. Sir Syed Ahmad Khan: A Political Biography. Aligarh Muslim University Press, 1966.
2. Troll, Christian W. Sayyid Ahmad Khan: A Reinterpretation of Muslim Theology. Vikas Publishing House, 1978.
3. Lelyveld, David. Aligarh's First Generation: Muslim Solidarity in British India. Princeton University Press, 1978.
4. Minault, Gail. Secluded Scholars: Women's Education and Muslim Social Reform in Colonial India. Oxford University Press, 1998.
5. Ahmad, S. Sir Sayyid Ahmad Khan and the Muslim Cause in British India. Islamic Book Foundation, 2006.